

YOSH OILALAR FAROVONLIGI YO‘LIDA TO‘YLARNI SODDALASHTIRISH ZARURATI

Norqobilova Saodat Rashidovna

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi

Uchtepa tuman bo'linmasi rahbari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17812481>

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'y marosimlarini ixchamlashtirish va soddalashtirish masalasi yosh oilalar farovonligini ta'minlashning muhim omili sifatida tahlil qilinadi. Muallif to'y va boshqa marosimlardagi ortiqcha dabdaba, isrof hamda iqtisodiy bosimning oilaviy barqarorlikka salbiy ta'sirini ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy nuqtai nazardan asoslaydi. Maqolada milliy an'analarni saqlagan holda zamonaviy, tejamkor va ma'naviy jihatdan boy to'ylarni tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: yosh oilalar, farovonlik, to'y marosimlari, soddalashtirish, isrof, iqtisodiy barqarorlik, milliy qadriyatlar.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос упрощения и рационализации свадебных церемоний как важного фактора обеспечения благосостояния молодых семей.

Автор обосновывает негативное влияние излишней роскоши, расточительности и экономического давления на устойчивость семьи с социально-экономических и духовно-нравственных позиций. Также предлагаются рекомендации по проведению скромных, экономичных и в то же время духовно насыщенных свадеб с сохранением национальных традиций.

Ключевые слова: молодые семьи, благосостояние, свадебные обряды, упрощение, расточительность, экономическая устойчивость, национальные ценности.

Abstract. This article examines the need for simplifying and rationalizing wedding ceremonies as a key factor in ensuring the well-being of young families. The author analyzes the negative impact of excessive luxury, wastefulness, and financial pressure on family stability from socio-economic and moral perspectives. The paper also provides recommendations for organizing modest, cost-effective, and spiritually rich weddings while preserving national traditions.

Keywords: young families, well-being, wedding ceremonies, simplification, wastefulness, economic stability, national values.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, oila va nikoh marosimlarida ham yangicha qarashlar shakllanib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatimizda to'y va marosimlarda ortiqcha dabdaba, isrofgarchilik, iqtisodiy imkoniyatlardan ortiqcha foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa yosh oilalarning dastlabki bosqichdayoq moliyaviy bosim ostida qolishiga, ba'zan esa oilaviy munosabatlarning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Har bir oila – farovon jamiyat poydevori" tamoyili yosh oilalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, ularning mustaqil hayotini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Shu nuqtayi nazardan, to'y marosimlarini soddalashtirish, ularni milliy qadriyat va zamonaviy hayot talablariga mos ravishda ixcham va maqsadga muvofiq tashkil etish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

Ijtimoiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mamlakatimizda o'tkazilayotgan to'ylarning o'rtacha xarajatlari ko'plab yosh oilalar uchun bir necha yillik daromadga teng miqdorni tashkil etadi. Natijada, oilaviy hayotning ilk bosqichida iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Shu sababli to'y marosimlarini soddalashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, isrofgarchilikka qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida ham ahamiyatlidir.

ASOSIY QISM

Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy instituti sifatida nafaqat shaxsiy hayot, balki mamlakatning iqtisodiy va ma'naviy barqarorligida ham muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan, nikoh va to'y marosimlari oila qurishning ramziy bosqichi bo'lib, ularning shakli va mazmuni jamiyatdagi iqtisodiy, madaniy va axloqiy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir.

Biroq so'nggi yillarda to'ylarning haddan ziyod dabdabali o'tkazilishi, ortiqcha mehmondorchilik, sovg'a-salomlarning miqdoriy jihatdan ko'payib ketishi, moliyaviy imkoniyatlardan tashqari chiqish holatlari kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Sotsiologiya instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar (2024) shuni ko'rsatadiki, so'ralgan respondentlarning 68 foizi "to'y xarajatlari ortiqcha" deb hisoblagan, 54 foizi esa "bu xarajatlar yosh oilaning iqtisodiy mustaqilligiga salbiy ta'sir qiladi" degan fikrni bildirgan.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, aholi bilan bevosita o'tkazilgan muloqotlar, jamoatchilik vakillaridan kelib tushgan murojaatlar ushbu sohada bir qator jiddiy muammo va kamchiliklar hamon saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, ayrim fuqarolar dabdabali to'y marosimlari va ularni o'tkazishga sarflanadigan katta xarajatlar oqibatida qarzga botmoqda va undan qutulish maqsadida chet elga ishlash uchun chiqib ketmoqda.

Bunday holatlar natijasida ko'plab yosh oilalar kredit yoki qarz mablag'lari hisobiga to'y o'tkazishga majbur bo'lishmoqda. Bu esa ularning mustaqil hayotining boshlanishidayoq iqtisodiy beqarorlik xavfini oshiradi. Shunday ekan, to'ylarni soddalashtirish va iqtisodiy me'yor asosida tashkil etish yosh oilalar farovonligi va jamiyat barqarorligi yo'lida zarur qadamlardan biridir.

TAHLIL VA TAKLIFLAR

Yosh oilalarning farovonligini ta'minlashda iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. To'y marosimlarini o'tkazish bilan bog'liq ortiqcha xarajatlar esa ko'pincha bu jarayonning asosiy maqsadidan — ikki yoshning mustaqil hayotini boshlash, yangi oilani moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashdan — chalg'itib yuboradi.

Ba'zi fuqarolar to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni dabdaba bilan o'tkazishni qo'shnilar, qarindoshlar tomonidan bo'ladigan tanqidlardan, qoralashdan, umuman olganda, ijtimoiy tazyiqdan xalos bo'lish vositasi sifatida tushunmoqda. Vaholanki, bunday tadbirlar yaqin qarindoshlar o'rtasida qarzдорlikning vujudga kelishiga va oqibatda keskin ziddiyatlarga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda o'rtacha to'y xarajatlari (2024-yil ma'lumotlariga ko'ra) 60–100 million so'm oralig'ida bo'lib, bu ko'rsatkich ayrim hududlarda 150 million so'mgacha yetmoqda.

Shu bilan birga, ko‘plab yosh oilalar to‘y xarajatlarini qoplash maqsadida qarzga kirish yoki kredit olish holatlariga duch kelmoqda.

Bu esa iqtisodiy jihatdan ikki yo‘nalishda salbiy ta‘sir ko‘rsatadi:

- birinchidan, oila yangi hayotini moliyaviy qarzдорlik bilan boshlaydi;
- ikkinchidan, iste‘mol madaniyatida isrofгarchilikka moyillik shakllanadi.

Bu holat uzoq muddatda nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki ijtimoiy barqarorlikka ham xavf tug‘diradi. Shuning uchun to‘y marosimlarini soddalashtirish iqtisodiy jihatdan ratsional hayot tarzini shakllantirish, barqaror iste‘mol madaniyatini rivojlantirish hamda resurslarni maqsadli yo‘naltirish vositasi sifatida qaralishi zarur.

Milliy qadriyatlarimizda to‘ylar — quvonch, mehr-oqibat va birlik ramzi sanaladi. Ammo ayrim hollarda bu qadriyatlar o‘z mohiyatini yo‘qotib, “ko‘r-ko‘rona raqobat” shaklini olmoqda.

Ya‘ni to‘ylarning sifati emas, dabdabasi asosiy mezon sifatida baholanmoqda.

Sotsiologik kuzatishlarga ko‘ra, to‘y marosimlarini haddan ziyod hashamat bilan o‘tkazish ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytiradi, bu esa ayrim qatlamlarda psixologik bosim va taqlidchilik kayfiyatlarini keltirib chiqaradi. Natijada jamiyatda “ko‘rsatish” madaniyati kuchayib, oddiylilik va me‘yorga rioya qilish qadriyatlari so‘nib boradi.

Aksariyat aholi, ayiqsa, xotin-qizlarning ongida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlarda qiz tomonning sarf-xarajatlari qanchalik yuqori bo‘lsa, qaynona-kelin munosabatlari shunchalik yaxshi bo‘ladi, degan noto‘g‘ri tasavvur tobora mustahkamlanib bormoqda.

Shu bois to‘ylarni soddalashtirish jarayoni faqat iqtisodiy chora emas, balki ma‘naviy yangilanish omili sifatida ham qaralishi kerak. Bu yo‘nalishda diniy-ma‘rifiy tashkilotlar, mahallalar va OAV (ommaviy axborot vositalari) orqali aholiga me‘yorga asoslangan hayot tarzi g‘oyasini singdirish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019-yil 14- sentabrdagi “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” qo‘shma qarori mazkur sohada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatda to‘y marosimlarini ixchamlashtirish, me‘yoriy mezonlarni belgilash va ortiqcha isrofгarchilikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha aniq qoidalar belgilangan.

Yuqoridagi salbiy holatlarning tobora avj olishi ming-minglab oilalarning nafaqat ijtimoiy ahvoliga, balki butun hayotiga, qolaversa, jamiyatimizda qaror topgan ma‘naviy muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur me‘yorlarga to‘liq amal qilinishini ta‘minlashda targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarur. Shu maqsadda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Mahalla darajasida “Ixcham to‘y – farovon oila” targ‘ibot dasturini joriy etish, unda o‘rnak bo‘ladigan ixcham to‘y egalari rag‘batlantirilishi;
2. OAV orqali real misollar asosida soddalashtirilgan to‘ylarning ijobiy iqtisodiy natijalarini yoritish;
3. Yosh oilalarga davlat yoki jamoat asosida maslahat xizmatlari (to‘y byudjeti rejalashtirish, me‘yorga asoslangan marosim tashkil etish)ni yo‘lga qo‘yish;

4. Ta'lim tizimida oilaviy iqtisodiy madaniyat va me'yoriy iste'mol ko'nikmalarini shakllantiruvchi fanlarni rivojlantirish.

Bu chora-tadbirlar yosh oilalar ongida isrofga qarshi immunitetni shakllantirish, iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash va to'y madaniyatini yangicha ijtimoiy qadriyat sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Yosh oilalar farovonligi — jamiyat taraqqiyoti va millat istiqbolining asosiy ko'rsatkichidir. Chunki mustahkam, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan barqaror oilalar jamiyatning ijtimoiy poydevorini tashkil etadi. Shu ma'noda, to'y marosimlarini soddalashtirish nafaqat iqtisodiy yengillik yaratadi, balki yoshlarning kelajak hayotini ongli ravishda rejalashtirishga yordam beradigan muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Soddalik — kambag'allik emas, aksincha hayotga oqilona yondashuv, resurslardan samarali foydalanish va me'yorni qadrlash madaniyatining ifodasidir. Soddalashtirilgan to'y marosimlari yosh oilalarni ortiqcha qarzga botishdan, iqtisodiy bosimdan saqlab, ularning hayotga mustaqil kirib kelishini osonlashtiradi. Bu esa kelajakda oilaviy muammolar, iqtisodiy qiyinchiliklar yoki ijtimoiy tushkunliklarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Isrofgarchilik va ortiqcha dabdaba esa faqat moliyaviy zarar keltirmaydi, balki asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlarimizga ham putur yetkazadi. Oila qurish marosimi aslida tantana emas, balki yangi hayot bosqichiga qo'yiladigan mas'uliyatli qadmdir. Shu bois dabdaba ortidan quvish emas, balki mazmunan to'kis, ma'naviy jihatdan boy marosim o'tkazish jamiyat uchun yanada foydali. To'ylarni soddalashtirish g'oyasini keng jamoatchilik ongiga singdirish — davlat, jamiyat va oilaning birgalikdagi vazifasidir. Mahalla institutlari, keng jamoatchilik, masjid imomlari, ma'naviyat targ'ibotchilari va ta'lim muassasalari bu borada muhim o'rin tutadi. Yoshlar ongida oddiylikni qadrlash, imkoniyatga yarasha ish tutish, me'yorni bilish madaniyatini shakllantirish — bugungi kunning zaruriy ehtiyojidir.

Milliy qadriyatlarimizda ham, diniy-ma'rifiy tamoyillarda ham isrofning qoralangani, tejamkorlik va me'yorning ulug'langani qayd etiladi. Zamonaviy iqtisodiy fikrlash ham aynan shu g'oyani qo'llab-quvvatlaydi: xarajatlarning oqilona rejalashtirilishi — barqaror farovonlik garovidir. Agar to'y marosimlarida milliy qadriyatlar, diniy-ma'naviy qarashlar va zamonaviy iqtisodiy tafakkur uyg'unlashsa, yosh oilalar iqtisodiy jihatdan mustahkam, ma'naviy jihatdan sog'lom va ijtimoiy jihatdan barqaror hayot kechiradi. Bu esa jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti, millatning ma'naviy va iqtisodiy kuchayishida muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019-yil 14-sentabrdagi "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" qo'shma qarori
2. Abdullayev, M. Jamiyatda ma'naviy madaniyat va isrofgarchilikka qarshi kurash. — Toshkent: "Ma'naviyat", 2020.
3. Rasulova, D. Yoshlar orasida tejamkorlik madaniyati: psixologik yondashuvlar. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022.